

CHET TILIDA TINGLAB TUSHUNISHDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

**Gadoyeva Asal Davlat qizi**

*Filologiya va tillarni o'qitish:*

*Koreys tili yo'nalishi 4 – bosqich talabasi  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*E-mail: [lalisam0801@gmail.com](mailto:lalisam0801@gmail.com)*

**Saidov Islombek Valijon o'g'li**

*Filologiya va tillarni o'qitish:*

*Koreys tili yo'nalishi 4 – bosqich talabasi  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*E-mail: [islomv0603@gmail.com](mailto:islomv0603@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola yangi chet tilini o'rganayotgan ko'plab til o'rganuvchilar orasida vujudga keladigan eshitib tushunishga doir muammolar va ularni yechimini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada nutqni tinglab tushunishni o'rgatish va tushunganlikni tekshirish, tilda nutqni tinglab tushunishdagi qiyinchiliklarga olib keluvchi muammolar va chet tilida tinglab tushunishni yaxshilash uchun yorgam beradigan yangi metodlarni tashkillashitirishga doir ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy metodlar, o'quv qo'llanmalar, nutq faoliyati, til ko'nikmalari.*

**Annotation:** *This article is dedicated to the study of listening comprehension problems and their solutions that arise among many language learners who are learning a new foreign language. The article provides information on teaching listening comprehension and checking comprehension, problems that lead to difficulties in listening comprehension in a language, and organization of new methods that help to improve listening comprehension in a foreign language.*

**Key words:** *modern methods, teaching aids, speech activity, language skills.*

Bugungi kunda bir emas bir nechta chet tillarini biladigan kadrlarga ehtiyoj kattaligi va chet tillarini bilish katta imkoniyatlar eshigini ochib berishi mumkinligi sababli chet tillarini o'rganish va o'rgatishga bo'lgan e'tibor va talab oshib bormoqda. Shu sababli ham hozirgi kunda yoshlar orasida chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish va maqsad ham ortib bormoqda. Hozirgi kunga kelib uzoq vaqt davomida talabalarning chet tilini o'rganish jarayonlarini kuzatish orqali metodistlar tomonidan bir qancha chet tilini o'rgatishga doir ilmiy ishlar va yangi bir qancha metodlar ishlab chiqilmoqda. Bulardan biri yangi til o'rganuvchilar uchun muhim omillardan biri bo'lgan – eshitib tushunishni o'rgatishga bag'ishlangan metodlardir.

Nutqni tinglab tushunishni o'rgatishda ahaniyat beriladigan tomonlariga to'xtalamiz. Birinchidan, nimani o'rgatish, ikkinchidan, qanday qilib o'rgatish va,

nihoyat, tushunganlikni qaysi yo'l bilan aniqlashni bilish talab qilinadi. Bu uchala masala alohida-alohida ko'rib chiqiladi.

O'quvchiga tinglab tushunish jarayonida quyidagilar o'rgatiladi: so'z va so'z birikmalarining shaklini va grammatik strukturalami g'ayrihuuriy ravishda farqlay olish; nutq namunasi (jumla)ni tinglab, oldindan fahmlay olish; eshitish xotirasi hajmini o'stirish; o'rganilgan til materialini turli birikmalarda tushuna olish; texnikaviy vositalarga yozilgan nutqni tushunish; bir karra aytilgan fikmi fahmlash; mo'tadil (o'quv dasturida qabul qilingan) tezlikdagi nutqni tushunish; audiomatnda

notanish leksik birliklar bo'Mishiga qaramay, uning umumiy mazmun va mohiyatini ilg'ab olish; turli yo'nalishdagi (tasviriy, ertaknamo, ko'p planli) audiomatni tushunish.<sup>23</sup>

Shu kabi metodlarni qo'llashdan oldin talabarning chet tilini o'zlashtirishi davomida duch kelayotgan muammolarini o'rganib chiqish va orqali ushbu muammolarning yechimiga bag'ishlangan yangi turdagi metodlar ishlab chiqish lozim.

Nutq faoliyati turlarining har biriga xos qiyinchiliklar mavjud. Xususan, tinglab tushunishda sodir bo'ladigan qiyinchiliklarni ham talaygina sanab ko'rastishimiz mumkin. Ularni bilish chet til o'rgatishda hal qiluvchi shartlardandir. Idrok etish, jumladan nutqni idrok etib tushunish muammolari jahon ruhshunosligida ancha mufassal ishlab chiqilgan. Chet til o'qitish metodikasi fani mavjud nazariy mulohazalardan samarali foydalanadi. Maktab sharoitida o'quvchilarning tinglab tushunishi sohasidagi qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

1. **Tilga oid shakliy qiyinchiliklar.** Ma'nosi har xil, tovush shakli esa o'xshash so'zlami (omofonlami) yoki chet til fe'lining majhul darajasini tinglash va tushunish murakkablik kasb etadi. Omofon va majhul fe'l bir qarashda tanishga o'xshaydi, biroq audiomatning mazmunini payqashda xiyla qiyinchilik tug'diradi.

2. **Mazmunga doir qiyinchiliklar.** Olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qayerda, kim bilan, qachon bo'lishi kabi dalillami idrok etish bobida yoki ular orasidagi bog'lanishni ilg'ab olish, shuningdek, umumiy g'oyaga taalluqli qiyinchiliklar mavjuddir.

3. **Nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchiliklar.** Bulardan nutq tezligi, ohangi va mexanik yozilgan audiomatning murakkabligini eslatish kifoya. Shu bilan birga audiomatni bir marta idrok etish, notanish odamni tinglash, ovozidagi o'ziga xoslik kabilar ham tushunishda g'ov bo'lishi tabiiy.

4. **Nutq shakliga oid qiyinchiliklar.** Dialog nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa uzun jumlamani eshitish xotirasida saqlash o'quvchi uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi.

5. **Tilshunoslik nuqtayi nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar.** Ular lisoniy — leksik, grammatik va fonetik qiyinchilik deb ataladi. Leksikada juft tushunchalar

<sup>23</sup> J. Jalolov: "Chet til o'qitish metodikasi" Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2012.

(mas. dunyo tomonlarini ifodalovchi soʻzlar), koʻp maʼnolilik (pohsemiya), turgʻun birikmalardagi soʻz maʼnosi, yordamchi soʻzlar, grammatik jihatdan ona tilida yoʻq hodisalar yoki fonetik tarafdin soʻzning yozuvda va talaffuzda keskin tafovuti, urgʻu va ohangning oʻxshamasligi tegishli qiyinchiliklarga sabab boʻladi.

6. **Audiomatn tuzilishiga oid qiyinchiliklar.** Audiomatnning tuzilishi (kompozitsion-mazmuniy strukturasi) ham qiyinchiliklarga olib kelishi aniqlangan. Chunki bayon etilayotgan axborotni ilgʻab olishga uning bevosita daxli bor. Gapning yoki abzasning bir-biriga mantiqan yopishishi, kontekstning yuzaki yoki chuqurligi, notanish leksik birliklar ishtiroki va qator oʻxshash kompozitsion-mazmuniy holatlar audiomatnning tushunilish darajasini belgilovchi omillardir.

Oʻquvchi tinglab tushunishda duch keladigan qiyinchiliklarni eʼtirof etishdan maqsad ularning oldini olish choralarini koʻrishdir. Qiyinchiliklar mehnat va vaqt talab qiladi, maxsus mashqlarni bajarish zaruriyatini tugʻdiradi. Qiyinchiliklarni oʻz vaqtida bartaraf qilish (neytrallashtirish) yoʻli bilan taʼlim jarayonini jadallashtirish va oʻqitishning eng maqbul (optimal) metodikasini ishlab chiqishga muvaffaq boʻlinadi.<sup>24</sup>

Til koʻnikmalarini rivojlantirish boʻyicha oʻquvchilarning umumiy bilim va koʻnikmalaridan foydalanib, tinglash qobiliyatini rivojlantirish boʻyicha metodistlar tomonidan ishlab chiqilgan baʼzi tavsiyalarni sanashimiz mumkin:

1. Tinglash qobiliyati yuzma-yuz muloqot orqali rivojlanadi. Ingliz tilida muloqot qilish orqali talabalar yangi tilni tanishtirish va oʻzlarining tinglash qobiliyatlarini sinab koʻrish imkoniyatiga ega. Yuzma-yuz muloqot maʼnoni tinglash qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Tinglash maʼnoga eʼtibor qaratish va maqsadli tilda yangi va muhim tarkibni oʻrganishga harakat qilish orqali rivojlanadi. Ingliz tilida tinglashning maʼnosi va haqiqiy sabablariga eʼtibor qaratish orqali talabalar oʻzlarining lingvistik va nolingvistik tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

3. Tinglash qobiliyati tushunish faoliyati ustida ishlash orqali rivojlanadi. Tinglashning aniq maqsadlariga eʼtibor qaratish orqali oʻquvchilar oʻzlarining saʼy-harakatlari va qobiliyatlarini baholashlari mumkin. Aniq belgilangan tushunish faoliyati bilan talabalar erishganlarini baholash va qayta koʻrib chiqish imkoniyatiga ega boʻladilar.

4. Tinglash aniqlikka eʼtibor berish va shaklni tahlil qilish orqali rivojlanadi. Tovushlar va soʻzlarni toʻgʻri idrok etishni oʻrganib, ular mazmunli yoʻnaltirilgan faoliyatni amalga oshirsa, bizning oʻquvchilarimiz barqaror rivojlanishga erishishlari mumkin. Tovushlar va soʻzlarni aniqroq eshitishni oʻrganish orqali oʻquvchilar maʼnoni tushunishlariga ishonch hosil qiladilar.

<sup>24</sup> J. Jalolov: "Chet til oʻqitish metodikasi" Chet tillar oliy oʻquv yurtlari (fakultetlari) talabalarini uchun darslik. "Oʻqituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2012.

Tushunish sifatida tinglash - tinglashning tabiati haqida fikrlashning an'anaviy usuli. Darhaqiqat, ko'pgina metodik qo'llanmalarda tinglash va eshitish sinonimdir. Tinglashning bunday ko'rinishi ikkinchi tilni o'rganishda tinglashning asosiy vazifasi og'zaki tilni tushunishni osonlashtirishdir, degan taxminga asoslanadi.<sup>25</sup>

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki yangi tilni o'rganishda va o'rgatishda katta mexnat va sabr talab etiladi. Til o'rganishda vujudga keladigan muammolarni metodistlar tomonida tuzilgan qo'llanmalar orqali hal qila olish mumkin.

**FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:**

1. J. Jalolov: "Chet til o'qitish metodikasi" Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2012.
2. file:///C:/Users/user/Downloads/tinglab-tushunishdagi-qiyinchiliklar-va-ularning-yechimlari%20(1).pdf

---

<sup>25</sup> file:///C:/Users/user/Downloads/tinglab-tushunishdagi-qiyinchiliklar-va-ularning-yechimlari%20(1).pdf